O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 3

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 3
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

3-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 3
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA BARKAMOL SHAXSNI SHAKLLANTIRISHNING MA'NAVIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Mustafova Maxzuna Mamatkulovna

Oriental universiteti, magistrant.

Annotatsiya.

Ushbu maqolada shaxsning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Unda milliy qadriyatlarning yosh avlod dunyoqarashi, ma'naviyati, axloqiy fazilatlari va milliy o'zligini shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, oila, ta'lim muassasalari va mahalla hamkorligida milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim omili sifatida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, shaxs tarbiyasi, ma'naviyat, axloq, milliy o'zlik, yoshlar, barkamol avlod, vatanparvarlik, urf-odat, an'analar.

ДУХОВНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГАРМОНИЧНО РАЗВИТОЙ ЛИЧНОСТИ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Мустафова Махзуна Маматкуловна

Университет Oriental, магистрант.

Аннотация.

В статье раскрываются роль и значение национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании личности. Анализируется влияние национальных ценностей на формирование мировоззрения молодого поколения, его духовности, нравственных качеств и национальной идентичности. Особое внимание уделяется вопросам приобщения молодёжи к национальным ценностям посредством сотрудничества семьи, образовательных учреждений и махалли. Гармоничное сочетание национальных и общечеловеческих ценностей рассматривается как важный фактор воспитания гармонично развитой личности.

Ключевые слова: национальные ценности, воспитание личности, духовность, нравственность, национальная идентичность, молодёжь, гармонично развитое поколение, патриотизм, обычаи, традиции.

SPIRITUAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR THE FORMATION OF A HARMONIOUSLY DEVELOPED PERSONALITY BASED ON NATIONAL VALUES

Mustafova Maxzuna Mamatkulovna

Oriental University, Master's Student.

Abstract.

This article examines the role and significance of national values in the spiritual and moral education of an individual. It analyzes the role of national values in shaping the worldview, spirituality, moral qualities, and national identity of the younger generation. Particular attention is paid to instilling national values in young people through cooperation among families, educational institutions, and the mahalla community. The harmony of national and universal human values is considered an important factor in fostering a harmoniously developed personality.

Keywords: national values, personal education, spirituality, morality, national identity, youth, harmoniously developed generation, patriotism, customs, traditions.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har bir xalqning asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlari uning ma'naviy qiyofasi, tarixiy xotirasi

va madaniy merosini o‘zida aks ettiradi. Shu bois milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni yosh avlod ongiga singdirish va kundalik hayotda namoyon etish jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir.

Shaxsning kamol topishida oila, ta’lim-tarbiya, ijtimoiy muhit va madaniyat bilan bir qatorda milliy qadriyatlar ham muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi. O‘zbek xalqiga xos kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, ota-onani e’zozlash, mehmondo‘stlik, mehr-oqibat, halollik, mehnatsevarlik, saxovat va vatanparvarlik kabi fazilatlar yoshlarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday qadriyatlar insonni jamiyatda munosib o‘rin egallashga, boshqalarga hurmat va e’tibor bilan munosabatda bo‘lishga undaydi.

Ayniqsa, bugungi kunda turli madaniyatlar va axborot oqimlarining yoshlar ongiga ta’siri kuchayib borayotgan bir sharoitda milliy o‘zlikni anglash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallash bilan birga, o‘z xalqining tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlari va an’analarini yaxshi bilishi lozim. Chunki milliy qadriyatlarini anglagan inson o‘zligini chuqurroq tushunadi, Vataniga bo‘lgan muhabbati va mas’uliyat hissi ortadi.

Milliy qadriyatlarning shaxs tarbiyasidagi ahamiyatini o‘rganish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va ma’naviy jihatdan ham muhimdir. Shu nuqtayi nazardan, milliy qadriyatlarning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rnini aniqlash, ularning ma’naviy-axloqiy kamolotiga ta’sirini o‘rganish hamda oilada, ta’lim muassasalarida va mahallada ulardan samarali foydalanish yo‘llarini belgilash mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Fan va texnologiyaning rivojlanishi insonlarga hayot sifatini yaxshilash uchun zarur imkoniyatlarni yaratib berar ekan, buning bir tomondan atrof-muhit ifloslanishi, global isish, zo‘ravonlik va terror kabi muammolar bilan ham yuzlashtirmoqda. Ushbu muammolarni yengish va murakkab jamiyatda boshqa shaxslar bilan bag‘rikenglik va hurmat asosida yashash uchun individlar muayyan xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim. Aynan mana shu xususiyatlar qadriyatlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Qadriyatni quyidagicha ta’riflash mumkin:

“Millatning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va ilmiy qadriyatlarini qamrab olgan moddiy va ma’naviy unsurlarning yig‘indisi”;

“Insonni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turadigan eng asosiy belgilarni o‘z ichiga olgan e’tiqodlar majmui”.

Madaniyat — bu dunyoda mavjud bo‘lgan barcha jamiyatlar va jamoalarning o‘ziga xos rasmiy va norasmiy qadriyatlari to‘plamidir.

Qadriyatlar esa ijtimoiy hamjihatlikni yaratish orqali jamiyatda amal qilish zarur bo‘lgan umumiy xulq-atvor namunalarini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, madaniy qadriyatlar madaniyatga ta’sir qiladi va madaniyat ham madaniy qadriyatlarga ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatning umumiy xulq-atvoridagi o‘zgarishlar yoki farqlar jamiyat madaniyatida va uning madaniy qadriyatlarida o‘z aksini topadi.

“Madaniyat va san’at” o‘quv sohasiga nisbatan bolalar va yoshlar turli xil badiiy shakllar va madaniy tajribalarda ijodiy ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘lishlari, bu esa ijodiy san’at va madaniyat, shaxsiy va jamoaviy o‘zlikni anglash hamda xilma-xillikka nisbatan xabardorlik va hurmat sohalarida bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi kutiladi [1].

Qadriyatlar tarbiyasi — bu individlarning qadriyatlarni ichki qabul qilishini ta’minlash orqali jamiyatlarning uzluksizligini kafolatlaydigan muhim jarayondir. Qadriyatlar tarbiyasi vositasida individlar o‘z madaniyatini kelgusi avlodlarga yetkaza oladilar. Qadriyatlar insonlarning ijtimoiy hayotda ishtirok etishiga xavfsizlik, mazmunlilik, maqsad va kelajak hissini olib keladi.

Qachonki qadriyatlar madaniyatlar o‘rtasida taqqoslash va kashf qilish uchun ishlatilsa, ular “yaxshi nima”, “to‘g‘ri nima” yoki “orzu qilingan nima” haqidagi umumiy mavhum g‘oyalarni ifodalaydi. Madaniy qadriyatlar individlarning jamiyatda qanday xulq-atvorga ega bo‘lishini tushuntirish, ularning o‘zini namoyon qilishini boshqarish va shaxsiy qarorlarini himoya qilish uchun ishlatiladigan mezon vazifasini o‘taydi [2].

Ijtimoiy, tarixiy va intellektual qadriyatlarning bir qismi jamiyatning madaniy qadriyatlariga aylanadi. Har bir madaniyat o‘ziga xos inson, jamiyat va dunyo tushunchasi hamda qadriyatlariga ega.

Qadriyatlar tarbiyasi norasmiy ravishda oilada boshlanib, rasmiy maktablarda davom etadi. Qadriyatlar tarbiyasi maktablarda o‘quv dasturlari bilan bir qatorda yashirin (norasmiy) dasturlar orqali ham amalga oshiriladi [3].

Hozirgi kunda turmush tarzimizni ijtimoiy-madaniy faoliyat yutuqlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Buning boisi o‘zbek xalqi uzoq o‘tmishdan boshlab ma’naviy madaniyatni yuksaltirishga yetarlicha e’tibor ko‘rsatib kelganligidir. Insoniyat ma’lum taraqqiyot bosqichlarini o‘z boshidan kechirgan, buyuk ota-bobolarimiz o‘zlari erishgan ma’naviy-madaniy yutuqlarini oltin meros sifatida kelajak avlodlarga qoldirib kelganlar. Albatta, bunday vorisiylik, o‘z navbatida, yosh avlodning ijtimoiy ongida hurmat, ehtirom va e’zoz tuyg‘ularini uyg‘otadi. Bugungi kundagi ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarishlarga qaramay, o‘tmish merosimizdan mukammal foydalanish, uni yanada taraqqiy ettirish uchun barcha imkoniyatlarimizni qo‘llashimiz taqozo etiladi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi [4].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi farmonida ko‘rsatilganidek, odamlarning o‘zliklarini chuqur anglashini, mustaqillik qadrini tobora teran tushunishini, milliy tafakkurining kengayishi va takomillashuvini, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg‘onishini ta’minlash ma’naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Mustaqillikka erishganimizdan keyin jamiyatimiz ijtimoiy hayotining turli jabhalarida shiddatli tarzda ro‘y berayotgan ulkan taraqqiyot va yuksalish barchamizda xalqimizning o‘tmish madaniyatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni yanada kuchaytirmoqda. Bunday harakat o‘tmishda sodir bo‘lgan madaniy taraqqiyotni to‘laqonli tushunib, o‘rganishga da’vat etadi. Shu bilan birga, bu murakkab jarayonning jamiyatimizda bugungi kunda yuz berayotgan tub o‘zgarishlarga bevosita ta’sir etib kelayotganligini ko‘ramiz. Nihoyat, o‘tmishda yashab o‘tgan ajdodlarimizning ijtimoiy-ma’naviy dunyosini o‘rganib, ularning nazariy hamda amaliy tajribalarini hozirgi zamon talablari darajasida hayotga tatbiq etish, yoshlarni istiqlol g‘oyalariga sodiq ravishda elparvar, vatanparvar etib tarbiyalash, barkamol avlodni voyaga yetkazish vazifasi turganligini tushunib yetdik. Shu bilan bir vaqtda, o‘tmishdagi milliy madaniyatimizning shakllanib, taraqqiy etib kelganligini mukammal o‘rganmay turib, hozirgi kunimizda mustaqil madaniyatimizni taraqqiy ettirib bo‘lmasligini chuqur his etmog‘imiz kerak.

Tarix — ijtimoiy hayot hamda inson tafakkuri mahsulidir. Shunday ekan, o‘tmishda yuz bergan har bir hodisa ma’lum ma’naviy-ruhiy, ijtimoiy-siyosiy muhit ta’sirida yuz berganligini ko‘ramiz. Unga nazar solsak, asrlar silsilasini varaqlash jarayonida har birimizdan alohida ziyraklik va zukkolik bilan ish ko‘rish talab etiladi. Natijada voqealar zamiridagi mantiq, falsafa, ruhiyat, siyosat, qo‘yingki, har bir davrning o‘ziga xos shukuh-u tashvishlari, sevinch-u iztiroblari ko‘z o‘ngimizda yaxlitligicha namoyon bo‘lishining guvohi bo‘lamiz. Bunday hol kishini fikrlashga, o‘tmishni idrok qilib, kelajakni aql yo‘rig‘i bilan belgilashga chorlaydi. Tarixning tafakkur mahsuli va ulug‘ murabbiyligi, uning muqaddas hamda oliy qadriyat ekanligini o‘tmish ajdodlarimiz isbotlab keldilar. Jonajon tariximiz mustaqillik davrida yanada oliymaqom mavqe va nufuzga ega bo‘ldi [5].

Milliy g‘oyaning o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatlarini quyidagicha aks ettirish mumkin: shaxs, jamoa, millat, jamiyat, davlatning g‘oyaviy, milliy ong va ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liq qonuniyatlaridir. Lekin ular umumiy aloqadorlikda uyg‘un rivojlanadi va jamiyatda aks etadi. Inson shaxsini g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan shakllantirishga qaratilgan qonuniyatlardan tashqari, biz yuqorida bayon etgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar qonuniyatlari ham mavjud. Albatta, mazkur qonuniyatlar o‘ziga xos, xususiy va umumiy jihatlarga ega bo‘lib, ba’zi sohalarda ularni chuqur o‘rganish, tahlil qilish lozim. Ularni o‘rganish jarayonida milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasining umumiy tamoyillari mohiyati va mazmunidan kelib chiqmoq kerak. Shu boisdan ham mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borishning turli aniq sharoitlardagi o‘ziga xos xususiyatlari, yo‘nalishlari va umumiy qonuniyatlari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni teran o‘rganmoq va ularni tadqiq etish foydadan xoli emas [6].

G‘oyaning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyati juda muhim falsafiy masaladir. Inson o‘zi g‘oyalarni yaratadi, ulardan kuch-quvvat oladi. O‘zi yaratgan g‘oyalar insonning ongi va shuurini, tafakkuri va e’tiqodini egallab, uning sohibiga aylanadi. Yuksak g‘oyalar odamlarni oliyjanob maqsadlar sari yetaklaydi. G‘oyasi yetuk, e’tiqodi butun, qadriyatlari yuksak insongina mardlik namunalarini ko‘rsata oladi.

Har bir xalqning tarixi shu xalqdan yetishib chiqqan buyuk siymolar, mard qahramonlar va fidoyi insonlar tarixi asosida bitiladi. Xalqimizning Shiroq va To‘maris, Spitamen va Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabi mard farzandlari — buyuk g‘oya sohiblaridir.

Tarixiy-ma’naviy qadriyatlarni tiklash — millatni tiklash demakdir. Bu amalga oshirilayotgan ishlar ichida xalq madaniyati an’analarini tiklash masalalari alohida diqqatni jalb etadi. Chunki an’anaviy xalq madaniyati, ya’ni etnomadaniyat ajdodlarimiz merosining tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida muhim o‘rin tutib kelgan va hozirgi davrda ham jamiyatni ma’naviy kamol toptirishda, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ruhiyati va tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, milliy ma’naviy-madaniy merosni tadqiq qilishga keng yo‘l ochilishi natijasida sho‘rolar davrida taqiqlangan tarixiy meros, ma’naviy qadriyatlar, xalq madaniyati an’analari va ulardan foydalanish masalalariga doir qator izlanishlar paydo bo‘la boshladi [7].

Ayniqsa, bu borada I. Jabborov, A. Asqarov, A. Ashirov, Mahmud Sattor, M. Murodov, A. Erkayev, U. Qoraboyev kabi olimlarning ishlari diqqatga sazovordir. Bugungi kungacha milliy g‘oyani yoshlar dunyoqarashida shakllantirishda etnomadaniyatning, ya’ni xalq madaniyatining o‘rni masalasi, aniqroq aytganda, shu masalaga oid ilmiy adabiyotlar va uni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar davom etmoqda. Etnomadaniyatning dolzarb muammolari, yoshlarga milliy g‘oyani singdirishning usullari borasida olib borilayotgan ilmiy ishlar yetarli darajada emas, hali bu sohada ko‘p izlanishimizga to‘g‘ri keladi.

Milliy g‘oya qonuniyatlari jamiyatning ijtimoiy-siyosiy jarayonlari, iqtisodiy va siyosiy madaniyati, ichki va xalqaro tizimlari, ularning mexanizmlari, vositalari hamda amaliyotini o‘rganishda muayyan qonuniyatlarga tayanadi hamda amal qiladi [8].

Milliy g‘oya qonuniyatlari davlat hokimiyati va jamiyat siyosiy hayotida o‘ziga xos qonunlarning harakat qilishi uchun sharoit yaratish, ularning har biri doirasida va o‘zaro aloqalarida uyg‘un harakat qilish jarayonini vujudga keltira bilish, o‘z navbatida, undan ko‘zlangan maqsad yo‘lida foydalana olishda muhim o‘rin tutadi.

Milliy g‘oyaning qonuniyatlari 2 turga bo‘linadi:

1. umumiy;
2. o‘ziga xos qonuniyatlar.

1. Umumiy qonuniyatlar turli xalqlar, mamlakatlar, jamiyatlar hayotida amal qiladigan umumiy asosga ega bo‘lgan ichki zaruriy bog‘lanishlar bo‘lib, ular jamiyat va mafkuralar (g‘oyalar)ning bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi qonunidir. Jamiyat mafkurasiz yashay olmaydi. Demak, birinchidan, mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo‘lmasa, odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qayerdaki g‘oyaviy bo‘shliq vujudga kelsa, o‘sha yerda begona g‘oyalar asosidagi mafkuralar ta’siri uchun sharoit vujudga keladi. Buning isboti uchun xoh tarixdan, xoh zamonamizdan ko‘plab misollar keltirish mumkin. U jamiyat oldidagi maqsadlar va ularni amalga oshirish vositalarini belgilaydi. Demak, milliy g‘oyaning qonunlari quyidagilardan iborat:

1. Turli xalqlar, turli jamiyatlar mavjud. Ularning maqsadlari ham, rivojlanish yo‘llari ham turli xil. Ya’ni rivojlanishning, ijtimoiy taraqqiyotning xilma-xilligi qonun orqali namoyon bo‘ladi.
2. Dunyoning mafkuraviy manzarasi turli xil maqsadlar, qarashlar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lgan va bo‘lib qolmoqda. Bu ezgu g‘oyalar bilan birga yot g‘oyalarning ham yashovchanligini, “dunyoda mafkura sohasida kurash” davom etib kelayotganligining asosida yotgan o‘ziga xos jihatdir.
3. Globallashuv jarayonining milliy g‘oyaga ta’sir etishi ham o‘ziga xos umumiy qonuniyatdir. Bu jarayon turli mamlakatlar, xalqlar hayotida ularning bir-biriga bog‘liqligini, o‘zaro ta’sirini oshiradi, ma’naviy-g‘oyaviy hayotida aks etmasdan qolmaydi.

2. O‘ziga xos qonuniyatlar o‘zbek xalqining hayoti, turmush tarzi, tarixi, madaniyati, milliy-madaniy merosi va qadriyatlarini aks ettiradi. Bu qonuniyat milliy g‘oyaning mazmuni, maqsadi va xususiyati nuqtayi nazaridan qaraganda alohida, ustuvor ahamiyatga ega. Chunki bu qonuniyatni hisobga olish o‘zbek xalqining, millatning kelajagi bilan, o‘zligini saqlab qolish hamda o‘z negizida rivojlanishini, dunyoda o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lishini e’tirof etish bilan bog‘liq. Tarixiy jihatdan yondashganda, bu sohada turli g‘oyalar va mafkuralarning ana shu muhim qonuniyatlarga zid bo‘lgan holatlarini ham kuzatish mumkin. O‘zbek xalqini tilidan, madaniyatidan, tarixidan ajratib qo‘yishga bo‘lgan urinishlar bunga misoldir. Chunki yot va begona g‘oyalar xalqni turmush tarzi, milliy-madaniy qadriyatlaridan ajratib qo‘yish orqali uni zaiflashtirishga va o‘z irodasiga bo‘ysundirishga harakat qilgan.

Demak, milliy g‘oyaning qonuniyatlari har bir xalq uchun milliy o‘ziga xoslikni zamon yutuqlari bilan bog‘lashning nafaqat kafolati, balki rivojlanish strategiyasi hamdir.

Milliy g‘oyaning amal qilish tamoyillarining o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi jamiyatning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning g‘oyaviy jihatlarini belgilash bilan bog‘liq. Bu tamoyillar bir-biri bilan dialektik bog‘liqlikda mavjud bo‘ladi. Ular, o‘z navbatida, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi talablariga mos keladi.

Insonparvarlik, inson qadr-qimmati, sha’ni va or-nomusi, haq-huquqlari hamda manfaatlarining ustuvorligi tamoyiliga tayanadi. Unda insonning hayoti oliy qadriyatdir. Bu tamoyil o‘tkinchi xarakterga ega bo‘lmay, balki O‘zbekistonning demokratik rivojlanish istiqbolini o‘zida mujassam etadi. Bunda milliy g‘oyaning insonparvarlik va demokratik tamoyillari inson hamda jamiyat manfaatlari uyg‘unligini belgilab beruvchi tayanch nuqta va jipslashtiruvchi omil vazifasini o‘taydi. Demak, milliy g‘oya ikki muhim, bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan negizga tayanadi. Bu, bir tomondan, O‘zbekiston xalqining tarixi, turmush tarzi, urf-odatlari, an’analari, madaniyati bilan bog‘liq milliy-madaniy meros bo‘lib, uning asosi, bosh negizi va tayanchi hisoblanadi. Ikkinchisi esa dunyo xalqlari e’tirof etib, faqat ezgulikka, bunyodkorlik ishlariga, o‘zaro totuvlik va hamjihatlikka xizmat qilib kelayotgan umuminsoniy tamoyillardir. Shu ma’noda milliy istiqlol g‘oyasi umumbashariy qadriyatlarni e’tirof etadi [9].

Hozirgi kunda jadal texnologik va ilmiy rivojlanish jamiyatlarga va ayniqsa, insoniy munosabatlarga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli yangi avlodga qadriyatlarni o‘quv dasturi orqali singdirishga berilayotgan ahamiyat ortib bormoqda.

Milliy va madaniy qadriyatlarga ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalashda, shuningdek, bag‘rikenglik, ezgulik, sog‘lomlik, halollik, mas’uliyatlilik, ilmiylik, sevgi va hurmat kabi umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishga hissa qo‘shadigan fanlardan biri boshlang‘ich maktablardagi “Hayot bilimi” darsidir. Ushbu darsning asosiy maqsadi — o‘quvchilarga bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni singdirishdan iborat. 2018-yilgi “Hayot bilimi” o‘quv dasturida alohida ta’kidlangan qadriyat va ko‘nikmalardan biri “Milliy va madaniy qadriyatlarni tan olish”dir (Milliy Ta’lim Vazirligi, 2018). Ushbu tadqiqot aynan shu qadriyatlar bilan cheklangan.

Zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarda milliy mansublik hamda madaniy farqlarni o‘rganish xalqaro va multikultural kompetensiyani shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Tadqiqotchilarning fikricha, professional mutaxassislarning xalqaro miqyosdagi samarali faoliyati ularning turli millat va madaniyat vakillari bilan konstruktiv muloqot olib borish ko‘nikmalariga bevosita bog‘liqdir. Shu bois milliy kelib chiqish bilan bog‘liq madaniy xususiyatlarni chuqur anglash va etnosentrik yondashuvlardan voz kechish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi [10].

Ilmiy adabiyotlarda “madaniyat” tushunchasining turlicha talqinlari mavjud bo‘lgani kabi, milliy kelib chiqishni aniqlash va baholashning ham bir necha metodologik yondashuvlari shakllangan. Kross-madaniy psixologiya yo‘nalishida madaniyatni operatsionlashtirishda ko‘pincha shaxsning fuqaroligi, yashash mamlakati yoki kelib chiqish mamlakati asosiy mezon sifatida qo‘llaniladi. Mazkur yondashuv ayrim cheklovlarga ega bo‘lib, ba’zan milliy mansublikni

umumlashtirilgan stereotipik tavsiflar asosida talqin qilish xavfini yuzaga keltiradi. Biroq ushbu metodologik yondashuv amaliy jihatdan samarali hisoblanadi va uning asosida katta hajmdagi nazariy hamda empirik bilimlar bazasi shakllangan.

Shuningdek, milliy qadriyatlar va madaniy xususiyatlarni hisobga olish shaxs tarbiyasini takomillashtirish jarayonida ham muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi. Chunki milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan tarbiya jarayoni shaxsning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, milliy o'zlikni anglash hamda madaniyatlararo bag'rikenglikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida milliy va madaniy xususiyatlarni inobatga olgan holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish muhim ilmiy-pedagogik vazifa hisoblanadi.

Milliy mansublikning professional faoliyatdagi ahamiyati nihoyatda muhim hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlarining jadallashuvi sharoitida turli mamlakatlarning madaniy qadriyatlarini to'g'ri anglamaslik iqtisodiy, ijtimoiy hamda kasbiy faoliyatda jiddiy muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Xalqaro biznes amaliyotida bunga oid ko'plab misollar mavjud. Jumladan, yirik savdo kompaniyasi Walmart Germaniya madaniyati va qadriyatlarini yetarlicha hisobga olmaganligi sababli 2006-yilda ushbu mamlakatdagi 85 ta savdo do'konini yopishga majbur bo'lgan. Natijada kompaniya katta iqtisodiy zarar ko'rgan. Xuddi shuningdek, Starbucks kompaniyasining Xitoydagi "Taqiqlangan shahar" hududidagi filialining yopilishi ham mahalliy madaniy qadriyatlar va milliy an'analarni yetarli darajada inobatga olmaslik bilan bog'liq bo'lgan. Mazkur holatlar milliy qadriyatlarni chuqur o'rganish professional faoliyat samaradorligini ta'minlashda muhim omil ekanligini ko'rsatadi [11].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Ular yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik, halollik, mehnatsevarlik, insonparvarlik va mas'uliyat kabi ijobiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar orqali avlodlar o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlik ta'minlanadi va xalqning tarixiy-madaniy merosi davomiyligi saqlab qolinadi.

Shaxs tarbiyasida milliy qadriyatlardan samarali foydalanish, avvalo, oiladan boshlanadi. Ota-onalarning shaxsiy namunasi, oiladagi o'zaro hurmat va mehr-oqibat, milliy urf-odatlarga amal qilish farzand tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muassasalari va mahalla esa ushbu tarbiya jarayonini yanada boyitib, yoshlarning ijtimoiy faolligi va ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek, milliy qadriyatlarni zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirish muhimdir. Yoshlar milliy merosni chuqur o'rganish bilan birga, zamonaviy fan, texnologiya va innovatsiyalarni ham egallashi zarur. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ma'naviy barkamol va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan shaxsni shakllantirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Demak, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni yosh avlodga to'g'ri va mazmunli yetkazish hamda kundalik hayotga tatbiq etish bugungi jamiyatning muhim vazifalaridan biridir. Milliy qadriyatlarga tayanib tarbiyalangan yoshlar o'z tarixini, madaniyatini va Vatanini qadrlaydigan, kelajak oldidagi mas'uliyatini anglaydigan barkamol shaxs bo'lib voyaga yetadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yaman E., Taflan S., Çolak C. *Değerler Eğitimi: Eğitimde Değerler ve Değerler Eğitimi.* – 2009. – B. 107.
2. Kasa B. *Madaniy qadriyatlar va madaniyatlararo munosabatlar.* – 2015. – B. 25.
3. Bayır-Gürdoğan M. *Değerler Eğitimi ve Değerlerin Aktarılması.* – 2019. – B. 403.
4. *Ma'naviyat asoslari.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 45.
5. Karimov I. A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 72.
6. Avloniy A. *Turkiy guliston yoxud axloq.* – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – B. 15.
7. Mirziyoyev Sh. M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi.* – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 8.
8. *Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar.* – Toshkent: O'zbekiston, 2001. – B. 112.
9. *O'zbekiston tarixi.* – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B. 56.
10. *Ma'naviyat asoslari.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 94.
11. *Pedagogika.* – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011. – B. 37.